



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 140 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<i>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<i>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</i>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
<i>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
<i>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</i>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
<i>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<i>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</i>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
<i>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</i>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
<i>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</i>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
<i>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</i>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
<i>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</i>	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
<i>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
<i>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
<i>Ismoilova Zarnigor raximjon qizi</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
<i>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
<i>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</i>	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
<i>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
<i>Murodova Madina Karim qizi</i>	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
<i>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</i>	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASINI O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH

Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna
Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi

ORCID ID 0000-0002-2398-0633

Annotatsiya: Blended learning (aralash ta'lim) - an'anaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn raqamli komponentlar bilan uyg'unlashtiradigan zamonaviy pedagogik yondashuv o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishda samarali strategiya sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda aralash ta'limning o'rni va ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqot nazariy yondashuvlar va empirik dalillar uyg'unligiga asoslanib, raqamli vositalar, multimedia resurslari hamda onlayn hamkorlik platformalarining til o'qitish ko'nikmalarini, raqamli savodxonlikni va pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganadi. Olingan natijalar aralash ta'lim nafaqat talabalarni o'quv jarayoniga jalb etishini va ularning mustaqil ishlash salohiyatini oshirishini, balki an'anaviy va zamonaviy ta'lim metodologiyalari o'rtasidagi tafovutlarni samarali bartaraf etishini ko'rsatadi. Maqola yakunida aralash ta'lim modellari orqali o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha siyosat ishlab chiquvchilar va ta'lim muassasalariga amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, professional kompetensiya, ingliz tili o'qituvchilari, oliy ta'lim, raqamli pedagogika, IKT kompetensiyasi, O'zbekiston, onlayn ta'lim.

Abstract: Blended learning – a modern pedagogical approach that combines traditional face-to-face instruction with online digital components – is increasingly recognized as an effective strategy for enhancing teacher education. This article examines the role and impact of blended learning on the development of professional competence among future English language teachers within Uzbekistan's higher education system. Drawing on a combination of theoretical perspectives and empirical evidence, the study explores the significance of digital tools, multimedia resources, and online collaboration platforms in fostering language teaching skills, digital literacy, and pedagogical innovation. The findings demonstrate that blended learning not only increases student engagement and promotes independent learning but also effectively bridges the gap between traditional and contemporary teaching methodologies. The article concludes with practical recommendations for policymakers and educational institutions on promoting continuous professional development for teachers through the implementation of blended learning models.

Key words: Blended learning, professional competence, English teachers, higher education, digital pedagogy, ICT competence, Uzbekistan, online learning.

Аннотация: Blended learning (смешанное обучение) – современный педагогический подход, который сочетает традиционное очное обучение с онлайн-цифровыми компонентами, признаётся эффективной стратегией совершенствования процесса подготовки педагогических кадров. В данной статье рассматривается роль и влияние смешанного обучения на развитие профессиональной компетентности будущих преподавателей английского языка в системе высшего образования Узбекистана. Исследование основано на сочетании теоретических подходов и эмпирических данных и анализирует значение цифровых инструментов, мультимедийных ресурсов, а также онлайн-платформ для совместной работы в развитии методических навыков преподавания языка, цифровой грамотности и педагогических инноваций. Полученные результаты показывают, что смешанное обучение не только способствует вовлечению студентов в образовательный процесс и повышает их самостоятельность, но и эффективно устраняет разрыв между традиционными и современными методологиями обучения. В заключении статьи представлены практические рекомендации для разработчиков образовательной политики и учебных заведений по обеспечению непрерывного профессионального развития преподавателей посредством внедрения моделей смешанного обучения.

Ключевые слова: смешанное обучение, профессиональная компетенция, преподаватели английского языка, высшее образование, цифровая педагогика, ИКТ-компетенция, Узбекистан, онлайн-обучение.



KIRISH

Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishida innovatsion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy islohotlar va strategik tashabbuslar oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ayniqsa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Blended learning (aralash learning) zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri sifatida an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini innovatsion onlayn o'quv faoliyati bilan uyg'unlashtiradi. Bu yondashuv talaba markazida bo'lgan moslashuvchan ta'lim muhitini yaratadi hamda til o'rganish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari nafaqat lingvistik va metodik kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki zamonaviy ta'lim jarayonida zarur bo'lgan raqamli savodxonlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Raqamli savodxonlik bugungi kunda o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Aralash ta'lim modeli bo'lajak pedagoglarga interaktiv o'quv resurslari, raqamli kommunikatsiya vositalari va masofaviy hamkorlik platformalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa ularni texnologiyaga asoslangan sinf muhitida dars jarayonini boshqarish, ta'lim mazmunini moslashtirish va baholash jarayonini takomillashtirishga tayyorlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston ta'lim tizimi global ta'lim tendensiyalari va milliy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashgan holda, blended learning texnologiyasi o'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga integratsiya qilish orqali ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Blended learning an'anaviy yuzma-yuz o'qitish va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirib, ta'lim natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida butun dunyoda keng e'tirof etildi. Bonk va Grahamning ^[2] fundamental tadqiqotlari aralash ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqib, onlayn va an'anaviy o'qitishning integratsiyasi yanada dinamik va moslashuvchan ta'lim tajribasini yaratishi mumkinligini asoslab berdi. Ushbu ilmiy qarashlardan kelib chiqib, Garrison va Vaughan ^[3] "Community of Inquiry" (So'rov hamjamiyati) modeli hamda mustaqil ta'limni rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlarni ishlab chiqdilar. Mazkur modellardan bugungi kunda turli ta'lim tizimlarida keng foydalanilmoqda.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar aralash ta'limning samaradorligini tasdiqlab, uning talabalar ishtirokini kuchaytirishi, raqamli savodxonlikni rivojlantirishi va bilimlarni chuqurlashtirishini ko'rsatadi. Hrastinski hamda Means va hammualliflari ^[1] olib borgan empirik tadqiqotlar aralash ta'lim muhiti talabalarining faolligini oshirishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashi va o'z tezligida interaktiv o'qish imkoniyatini berishini ilmiy jihatdan isbotlagan. Shu bois blended learning zamonaviy ta'limning ajralmas va muhim qismi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Xodjayev ^[8] ingliz tili o'qitish jarayonida blended learning texnologiyasini qo'llanilishiga oid tadqiqotida raqamli vositalarni an'anaviy ta'lim bilan integratsiya qilish o'qituvchilar tayyorgarligi va talabalar ishtirokini yaxshilashini aniqladi. Shadieva ^[4] esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari amaliyotida innovatsion raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, doimiy kasbiy rivojlanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha mustahkam ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini ta'kidladi.

Oliy ta'lim tizimida aralash ta'limning joriy etilishi bo'yicha o'zbek tadqiqotchilari ham turli ilmiy xulosalar berganlar. Masalan, Muxtorjonovna ^[7] olib borgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra aralash ta'lim universitetlarda qo'llanilganda bo'lajak o'qituvchilarda motivatsiyani oshirish bilan birgalikd raqamli savodxonlik va kasbiy ko'nikmalarni sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Yaqinda Sabirjonova ^[4] o'tkazgan tadqiqot esa veb-texnologiyalarni aralash ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarda AKT kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanini ilmiy asoslab berdi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga blended learning texnologiyasining ta'sirini baholash maqsadida aralash uslubdagi (mixed-methods) tadqiqot dizayni qo'llanildi. Ma'lumotlar turli oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Farg'ona davlat universitetida tahsil olayotgan Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishidagi talabalardan yig'ildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida:

- **Strukturaviy so'rovnoma** yordamida ishtirokchilarning raqamli savodxonlik darajasi, aralash ta'lim modullaridan qoniqish darajasi va o'quv jarayoniga jalb etilish ko'rsatkichlari o'rganildi.
- **Yarim strukturaviy intervyular** orqali o'qituvchi va talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, aralash ta'limning afzalliklari va muammolari haqidagi sifatli ma'lumotlar olindi.
- **Dars jarayonini kuzatish metodi** yordamida auditoriya ichidagi muloqot shakllari hamda o'quv materiallarini yetkazishda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi.

Olingan miqdoriy ma'lumotlar tavsifiy (descriptive) va xulosaviy (inferential) statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlangan bo'lsa, sifatli ma'lumotlar asosiy tendensiyalar va muammolarni aniqlash maqsadida mavzuli (thematic) tahlil usuli orqali o'rganildi. Bunday kompleks yondashuv blended learning texnologiyasining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasiga ta'sirini har tomonlama baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda Blended learning texnologiyasining sezilarli ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. So'rovnoma orqali olingan miqdoriy ma'lumotlar hamda intervyular va dars kuzatuvlari natijasida olingan sifatli ma'lumotlar ishtirokchilarda raqamli savodxonlik, mustaqil ta'lim ko'nikmalari va pedagogik innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha aniq o'sish borligini tasdiqladi.

An'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini onlayn resurslar bilan uyg'unlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilar moslashuvchan ta'lim jarayonida faol ishtirok eta oldilar. Bu ularga o'quv materialini qayta ko'rib chiqish, mustaqil ravishda chuqur o'zlashtirish va o'z tezligida takrorlash imkonini berdi. Natijada ular o'z mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish bilan cheklanmay balki zamonaviy til o'qitish uchun zarur bo'lgan raqamli vositalarni ham mukammalroq o'zlashtirdilar.

O'quv natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar virtual sinflar va o'quv jarayonini boshqarish tizimlari kabi raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha sezilarli darajada malakali bo'lib, onlayn muhokama forumlari va hamkorlik loyihalari orqali muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantirdilar. Ishtirokchilarning aksariyati interaktiv darslar loyihalash, multimedia vositalarini dars jarayoniga qo'shish va ularni samarali qo'llashda ishonchlari oshganini bildirdilar.

Tadqiqot shuningdek, o'qituvchi markazli metodlardan talaba markazli yondashuvga o'tish jarayoni tezlashganini ko'rsatdi. Bu yondashuv faol ishtirokni, tanqidiy fikrlashni va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rag'batlantirdi.

Shu bilan birga, aralash ta'limni to'liq joriy etishda bir qator muammolar ham qayd etildi. Xususan:

- Qishloq hududlarida ishonchli internet va raqamli qurilmalarga yetarli darajada ega bo'lmalik talabalar va o'qituvchilar uchun sezilarli to'siq bo'ldi.
- Raqamli pedagogika bo'yicha yetarli tayyorgarlikning yo'qligi texnik qiyinchiliklar va moslashish jarayonining sekinlashishiga olib keldi.
- Ba'zi o'qituvchi va talabalar orasida yangilikka qarshilik kuzatildi, bu esa muntazam kasbiy rivojlanish va ta'lim tizimi doirasida qo'llab-quvvatlashning zarurligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot blended learning'ning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanini, ammo uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik infratuzilma, pedagogik tayyorgarlik va motivatsion qo'llab-quvvatlashning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Mazkur tadqiqot doirasida aniqlangan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiya etilgan choralarni yanada aniqroq ifodalash maqsadida, quyidagi jadvalda ushbu masalalar hamda ularning taklif etilgan yechimlari umumlantirilgan holda keltiriladi.

Muammolar	Tavsiyalar
Qishloq hududlarida ayniqsa, ishonchli internet tarmog'i va raqamli qurilmalar bilan yetarli ta'minlanmaslik.	Raqamli infratuzilmani yaxshilashga investitsiya kiritish; xizmat ko'rsatilmagan hududlarda subsidiyalangan qurilmalar va kengaytirilgan internet ulanish imkoniyatlarini ta'minlash.



Muammolar	Tavsiyalar
Raqamli texnologiya bo'yicha o'qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.	Maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish va raqamli ta'lim metodlari bo'yicha uzluksiz malaka oshirish (CPD) seminarlarini muntazam o'tkazish.
Onlayn darslar davomida texnik nosozliklar va o'quv platformalarining barqaror ishlamasligi.	Maxsus IT qo'llab-quvvatlash jamoalarini tashkil etish; o'quv jarayonini boshqarish tizimlari va boshqa raqamli platformalarni muntazam texnik xizmat ko'rsatish va yangilash.
An'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanishga o'rganganlik tufayli yangilikka qarshilik ko'rsatish.	Qo'llab-quvvatlovchi institutsional madaniyatni shakllantirish; bu borada xabardorlik kampaniyalarini o'tkazish va aralash ta'lim strategiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish.
Virtual ta'lim muhitida talabalar faolligini saqlash va ularning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlashdagi qiyinchiliklar	Interaktiv multimedia resurslari va real vaqtli fikr-mulohaza mexanizmlarini integratsiya qilish; talabaga yo'naltirilgan, jalb qiluvchi dars faoliyatlarini loyihalash.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, aralash ta'lim kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali yondashuv bo'lsa-da, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun infratuzilmaviy va pedagogik muammolarni hal etish zarur. Raqamli infratuzilmani rivojlantirishga doimiy investitsiya kiritish hamda o'qituvchilarni keng qamrovli tayyorlash dasturlarini joriy etish natijalarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar va institutsional strategiyalarni ishlab chiqish yangilikka qarshilikni kamaytirishga, hamda o'qituvchi va talabalarning ushbu gibridd yondashuvdan to'liq foyda olishlariga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aralash ta'limni O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali va o'zgarish keltiruvchi strategiya ekanini isbotladi. Ushbu tadqiqot an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini innovatsion raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish raqamli savodxonlikni rivojlantirish, talabalar faolligini oshirish hamda yanada dinamik va talaba markazli ta'lim yondashuvlarini rag'batlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bu yutuqlar nafaqat dars jarayonining hozirgi amaliyotini yaxshilaydi, balki milliy ta'lim tizimining uzoq muddatli modernizatsiyasi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilmani rivojlantirishga doimiy investitsiyalar kiritish va keng qamrovli kasbiy rivojlantirish dasturlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Internet tarmog'ining barqaror emasligi, texnik nosozliklar va yangilikka qarshilik kabi mavjud muammolarni bartaraf etish siyosat ishlab chiquvchilar, ta'lim muassasalari va manfaatdor tomonlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. Qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar yaratish va yetarli resurslar ajratish ushbu to'siqlarni yengib o'tishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Blended learning texnologiyasining ahamiyati uning faqat pedagogik foydasida emas, balki kengroq paradigmatic o'zgarish sifatida namoyon bo'lishida hamdir. U o'qituvchilarda XXI asr ta'limi uchun zarur bo'lgan moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi, uzluksiz ta'lim va doimiy kasbiy rivojlanish madaniyatini qaror toptiradi. Bu esa ta'lim islohotlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar izchil rivojlanishda davom etayotgan bir davrda, aralash ta'lim modellarini takomillashtirish, ularning uzoq muddatli ta'sirini baholash va O'zbekistonning turli ta'lim muhitlariga moslab kengaytirish imkonini beruvchi ilg'or tajribalarni ishlab chiqish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur. Natijada, aralash ta'limning muvaffaqiyatli joriy etilishi orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi hamda ta'lim tizimining umumiy salohiyatini ham mustahkamlaydi. Mazkur yondashuvni izchil qo'llash bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini global raqobatbardosh, raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ishonch bilan ta'minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Means et al., Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies, U.S. Dep. Educ., Washington, DC, USA, 2010.
2. C. J. Bonk and C. R. Graham, The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco, CA, USA: Pfeiffer, 2006.
3. D. R. Garrison and N. D. Vaughan, Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco, CA, USA: Jossey-Bass, 2008.
4. D. Sabirjonova, "Blended Learning and Web Technologies for ICT Competence Formation in English Language Pedagogy," Alfraganus Univ., vol. 3, no. 2, pp. 133–144, Feb. 2025.



5. N. Shadieva, "Digital tools for enhancing blended learning in English language education in Uzbekistan," Eurasian J. Appl. Linguist., vol. 7, no. 2, pp. 112–116, 2021.
6. S. Hrastinski, "What do we mean by blended learning?," TechTrends, vol. 63, no. 5, pp. 564–569, 2019.
7. S. A. Muxtorjonovna, "Significance Of Blended Learning In Education System," Am. J. Soc. Sci. Educ. Innov., vol. 2, no. 8, pp. 507–511, Aug. 2020.
8. Y. Khodjayev, "Implementation of blended learning in English language teaching in Uzbekistan: Opportunities and challenges," J. Lang. Teach. Res., vol. 11, no. 3, pp. 345–352, 2020.
9. Pakirdinova, S. A. (2024). Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonida ahamiyati. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific Journal of the Fergana State University, 30(6), 223–227. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss6_2t/a48
10. Pakirdinova, S. A. (2024). Comparative analysis of online and traditional classroom learning. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific Journal of the Fergana State University, 30(6), 231–234. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss6_2t/a49

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.